

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
TABIIY FANLAR FAKULTETI  
"EKOLOGIYA" KAFEDRASI**

**EKOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI 4-KURS TALABASI  
ABDURAXMONOVA NASIBANING  
ATROF-MUHIT MUHOFAZASI FANIDAN**

**KURS ISHI**

**MAVZU: Globallashuv jarayonida ekologik muammolar  
ko'lami va yechimi**

**Bajardi:**

\_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_

**Buxoro–2015**

## Reja

- 1. Globallashuv jarayonida ekologik muammolar ko'lami, yechimi.**
- 2. Ekologik dunyoqarashni shakllantirish shakl, metod va vositalari**
- 3. Globallashuv sharoitida inson, tabiat va jamiyat munosabatlari mazmuni.**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

## KIRISH

Yurtboshimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch” asarlarida “globallashuv fenomeni” atamasining bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noni anglatishi, umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma’no mazmundagi xo’jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy – biologik - ekologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etayotganligi ta’kidlanmoqda.<sup>1</sup>

Bunday Globallashuvga sabab – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo’shni davlatlar, balki boshqa mintaqa hududlar bilan bog’liq bo’lmoqda, shu ma’noda “Globallashuv – bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”.<sup>2</sup>

**Mavzuning dolzarbligi:** Bugun yoshlarimiz ommaviy axborot vositalari, Internet orqali har kuni rang-barang axborotlarni qabul qilmoqda. Lekin biz yoshlarga nimani ko’rib, nimani ko’rmaslikni, ta’qiqlash, umuman olganda bir tomonlama tarbiya berish tarafdori emasmiz. Chunki biz ochiq va erkin demokratik jamiyat qurmoqdamiz. Biz yoshlarni, shunday tarbiya berishimiz lozimki, har qanday vaziyatda ham yomon ta’sirlarga tushib qolmasin, “biz davlatimiz kelajagini o’z qobig’imizga o’ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o’zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o’z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko’ramiz. Biz bugun ma’rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat, bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o’zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz”.<sup>1</sup> Lekin biz “ommaviy madaniyat” deb atalgan, yoshlarimizning ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan axloqsizlik, zo’ravonlik, individualizm, egotsentrizm g’oyalarini tarqatilishidan farzandlarimizni asrashimiz kerak.

---

<sup>1</sup> Ислом Каримов “Юксак маънавият-енгилмас куч” Т., “Маънавият”. 2008 й., 111 б.

<sup>1</sup> Ислом Каримов. “Юксак маънавият – энгилмас куч” Т., “Маънавият”, 2008, 114 б.

Shuning uchun biz yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat, tariximizga, muqaddas dinimizga sadoqat ruhida, bag'rikeng qilib tarbiyalash uchun, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ularda odamiylikni mustahkamlash lozim. Odamiylik - bag'rikenglikning muhim shartlaridan bo'lib, jamiyat a'zolariga nisbatan hurmat, ishonch, sof qalblik, samimiylik, kamtarlik, poklik fazilatlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, ulug' ajdodlarimizning o'tmishida jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan ma'naviyatini o'rganish, "ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat-andisha, sharmu-hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalari orqali bag'rikeng qilib tarbiyalash biz ziyolilarning asosiy burchimizdir.

**Globalashuv**– bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi xarakterlar shu qadar tizilgan, shu qadar tezkorki, endi ilgorigidek, xa bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga alokasi yuq, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalk yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi xech gap emas. Barchamizga ayon bulishi kerakki, qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab quyilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qaerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql – idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi. Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik axborot– kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ruy berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan goyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yunaltirilgan jarayon.

## **1. Globallashuv jarayonida ekologik muammolar ko'lemi, yechimi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va garaqqiyot kafolatlari» asarida «Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir. Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi» .

Inson bilan tabiat o'zaro munosabatsiz yashay olmaydi. Eng avvalo inson mehnatsiz yashay olmaydi. Mehnat esa tabiat va uning komponentlarini u yoki bu darajada o'zgartirishdir. Inson o'zi uchgun zarur bo'lgan barcha narsani havo, er, suv, kiyim —kechak, egulik mevalar-u, boshdana va jihozlar uchun yog'ochlik bari — barini tabiatdan oladi. Inson faoliyati tufayli atrof — muhit, tabiat o'zgaradi. Bu o'zgarishlar tufayli:

- 1.Tabiiy zahiralalar kamayadi;
- 2.Atrof—muhit ifloslanadi;
- 3.Ekosistemalarning bokiraligi yo'qolib, ikkilamchi tabiat ko'payadi;
- 4.Ekologik komponentlarning ko'pchiligi degradatsiyaga uchraydi.

Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzida sodir bo'layotgan tabiiy jarayonlarning o'ndan to'qqiz qismida inson faoliyatining mahsuli aks etmoqda. Inson bilan tabiat muloqoti paytida inson o'z ehtiyojini faqat ehtiyojinigina emas, balki ochko'zligini ham o'ylab, tabiatning o'z biologik ehtiyoji borlig'ini unutib qo'ygani tufayli inqirozlar ro'y bera boshladi. Ekologik xatolar, ekologik tanglik, ekologik inqiroz garchi har xil tushunchalar bo'lsa ham, bir —biriga o'ta olishi mumkin bo'lgan sifat jihatdan har—xil tabiiy — ijtimoiy holatlaryai ham qoplab slgan tushunchalardir.

Ekologik xato — ekologik inqiroz tomon qo'yilgan birinchi qadamdir. Ekologik xatoliklar, tangliklar, inqirozlar asosida tabiiy — ekologik qonunlarni

buzish, bilmaslik yotadi. Ekologik inqiroz deganda, faqat atrof — muhitni ifloslanishi, turlarning kamayib ketishigina tushuyilmaydi. Ekologik inqiroz deganda, ekokomponentlar orasidagi tabiiy bog'lanihlarning buzilishi, yer usti va yer osti boyliklari, tabiat zahiralarning kamayib borishi, ekosistemalarning biologik mahsuldorligini pasayishi, iqlimning o'zgarishi, suv, havo, tuproq sifatlarining manfiy tomonga o'zgarib ketishi va texnikaning ekologik asoslanmaganligi tufayli yuzaga kelgan ekologik tahdidlar tushuniladi.

«Ekologik inqirozni oldini olish, — deb yozadi nemis ekolog olimi B.Grijimek, —unga qarshi kurashdan ko'ra doimo bir necha chandon arzonroqdir». Masalan, paxta yakkahokimligidan O'zbekistonda olingan daromad (1960 — 1987 yillar), Orol dengizi va uning atrofidagi ekologik inqirozni tugatishdan ketadigan sarf—xarajatdan ko'ra 70 baravar kamdir.

Inson biosferaning imkoniyat chegaralari bilan hisoblashmaganligi tufayli ekologik inqirozlar yuzaga keladi. Ekologik inqirozlar sababi quyidagilardir:

### **1. Biosferaning fizik parametrlarini o'zgarishi;**

Boshqacha qilib aytganda, yerda hayot mavjud bo'lishi uchun ma'lum miqdorda harorat, namlik, bosim, rentgen nuri, elektr maydonlari, magnit maydonlari va boshqalar bo'lishi kerak. Mabodo bularning miqdori o'zining «tabiiy» miqdoridan oshsa yoki kamaysa, biosferaning fizik parametritra zarar etkazilgan bo'ladi. Biosferaning tabiiy radiatsiya ko'rsatkichi 2 milliGrey/yildan tortib 5 millireyG/yilga teng. MilliGrey/yil «ber» degan tushunchaga tenglik jihatdan mos, ammo sayyoramizdagi har bir tur har bir hayvonning o'ziga xos moslashish darajasi ham bo'ladi. Masalan, uy hayvonlari radiatsiya nurlariga nisbatan seziluvchan bo'lishsa, xitin qobig'i bilan qoplangan hayvonlarning radiatsiyaga juda chidamli sanaladilar. Shovqining m`yeoridan kam yoki ko`pligi ham tirik organizmlarga salbiy ta`sir ko`rsatadi (1-jadval)

### **SHOVQIN KO'LAMLARI 1-jadval**

<b>№</b>	<b>Tovushning turi</b>	<b>Tovushning o'lchov birligi</b>
1	Maysaning shitirlashi	10 db
2	Barglarning shitirlashi	20 db

3	Yomg'irning yog'ishi	20 db
4	Xonadagi odatiy ovoz	30 db
5	Osoyishta xonadagi sokin musiqa	40 db
6	Ko'chadagi kundalik shovqin	50 db
7	Engil mashinaning shovqini	70 db
8	Yuk mashinasining shovqini	80 — 90 db
9	Elektropoezd tovushi	80 db
10	Avtomobil signalining tovushi	100db
11	Reaktiv samolyotning tovushi	110 db

190 — 200 detsibelda metall konstruktsiyalarning boltsimon gaykasi uchib ketadi. O'rta asrlarda «Qo'ng'iroqlar ostidagi o'lim» turi mavjud bo'lib, odam qo'ng'iroqlar ostiga bog'lab qo'yilgan, qo'ng'iroqlarning tinimsiz chalinishi insonni qiynalib o'lishiga sabab bo'lgan. Kosmonavtlarning surdokameradagi sinovlari eng og'ir sinov sanaladi, mutlaq sokinlik, hatto kishi kiprigining ko'tarilish tovushi ham kosmonavtni seskantirib yuboradi. Odamning yashashi va ish faoliyati uchun havoning namligi, harorati va bosimi ma'lum bir muvozanatda bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Havoning nisbiy namligi 40 - 60%, harorati 18°S — 20°S bo'lishi odam organizmi uchun eng qulay sharoit hisoblanadi.

## **2.Ekologik komponentlar o'rtasidagi tabiiy bog'lanishlarning buzilishi;**

Biosferadagi barcha jonli — biota va jonsiz — abiota jismlar bir — biri bilan bog'liq bo'ladi. Bu boglanishdan birta turning yo'qolishi ham sifatga ta'sir ko'rsatadi. Ekokomponentlar o'rtasidagi tabiiy bog'lanishlar buzilmaganda, har bir ekosistema «yaxshi ekosistema» talablariga javob bera oladi, Bunday ekosistemalarda o'simliklar bilan hayvonlar o'rtasidagi miqdoriy munosabat, «yirtkich bilan o'lja», «xo'jayin bilan parazit» orasidagi miqdoriy munosabatlar doimo saqlanadi. Buxoroda liylaklarning qirilib ketishiga sabab, laylaklarnng ekologik nishining yo'q bo'lib ketganidir, boshqacha so'zlar bilan aytganda, har bir tur o'zining yashash joyi, hudud ovqati va boshqalarga ega, shulardan birortasi yo'qotilib yuborilsa, mazkur tur albatta halokatga uchraydi.

### 3. Biosfera kimyoviy parametrlarining o'zgarishi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, erda hayot mavjud bo'lishi uchun faqat fizik holatlar emas, balki kimyoviy ko'rsatkichlar ham o'zining hayot ko'rsatkichiga teng bo'lishi lozim. Demak, Erda ma'lum miqdorda karbonat anhidrid, ma'lum miqdorda kislorod va ozon bo'lishi shart, ulardan birining miqdori o'z me'yoridan oshishi yoki aksincha kamayishi aslo mumkin emas. Biosfera kimyoviy parametrlarining salbiy tomonga o'zgarishi ikki yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1. Biosferadagi kimyoviy moddalarning tabiiy meyorining buzilishi;
2. Biosfera «tanasiga shimilmaydigan yangi kimyoviy moddalar» ning to'planishi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, tabiatning o'zida mavjud bo'lgan barcha kimyoviy zlementlar, birikmalar, moddalar biosferaning kimyoviy aylanish zanjiriga kiradi. Ammo inson tomonidan yaratilgan kimyoviy birikmalarning ko'pchiligi bu zanjir tarkibiga kirmaydi, ya'ni «yerga ham, havoga, suvga ham singmaydi». Hozir esa bunday birikmalar soni ortib bormoqda. Atrof — muhitning ifloslanishi bir necha sabablarga ko'ra ro'y beradi. Tabiiy muhitni ifloslantiruvchi faktorlar turlicha bo'ladi. Atrof — muhitning ifloslanishi ikki xilga ajratiladi: 1. Tabiiy ifloslanish 2. Antropogen ifloslanish

**Atrof-tabiiy muhitning ifloslanishi** deb tabiiy moddalar (tuproq, suv, yer osti bo'liklari, atmosfera havosi) tarkibining fizik va kimyoviy o'zgarishiga aytiladi Bunday ifloslanishda inson faoliyat ko'rsatmaydi. Masalan, zilzilalar, suv toshqinlari, bo'ron, yog'in — sochinlar, muz ko'chish kabilar. O'z mohiyatiga ko'ra tabiiy ifloslanishlar sifat jihatdan farq qiladigan quyidagi turlarga ajratiladi:

- A). Quyosh — kosmik (meteoritlarning tushishi, magnit bo'roni);
- B). Iqlim — gidrologik (tayfun, bo'ron, suv toshqini, havo haroratini va yog'in yog'ishlarining anomal o'zgarishlari);
- S). Geologik — geomorfologik (zilzila, tsunami, vulkanning otilishi, sel kelishi, qor ko'chishi, surilma, o'pirilish, tosh tushishlar, muzliklarning bostirilishi);
- D). Geokimyoviy (yer osti tabiiy gazlarning portlashi, botqoqliklardan zaharli gazlarning chiqishi, sun'iy materiallarni korroziyasi);



E). Biologik (yoppasiga zararkunanda hasharot va qumursqalarning ko'payishi, o'rmonlarning qurib ketishi natijasidagi yong'inlar) ifloslanish.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tabiiy ifloslanish ekologik xavfsiz ifloslanish sanaladi. Ularning ekologik xavfsiz muhitga ta'siri iqtisodiy shaklda 3 — 10% tashkil etadi.

Atrof -muhitga insoniyat faoliyati tufayli ro'y beradigan ifloslanishlar **antropogen ifloslanishlar** deyiladi. Antropogen ifloslanishlar ham o'z mohiyatiga ko'ra biologik, kimyoviy, fizikaviy, geologo - gidrologik bo'lishi mumkin. Atrof muhitning antropogen ifloslanishi iqtisodiy munosabat shaklida umumiy ifloslanishning 90- 97%ni tashkil etadi. Antropogen ifloslanish tufayligina biosfera o'z hayot ko'rsatkichlarini yo'qotadi: tabiiy zahiralalar kamayadi yoki to'g'ridan— to'g'ri yo'qolib ketadi, tabiiy muhit ifloslanadi, natijada ekosistemalarning biomahsuldorligiga putur yetadi; biosferaning tabiiy aylanish tizimiga ilgari mavjud bo'lmagan «kimyoviy birikmalar» kirib qolib, ekokomponentlarning funksional faoliyatiga putur etkazadiva h.k.

**4. Biosferadagi har bir ekomponent ko'p yoki kam, jonli yoki jonsiz (tirik yoki tirik bo'lmagan), «birlamchi» yoki «ikkilamchi» tabiat bo'lagi bo'lishidan qat'iy nazar uch xil qiymatga ega bo'ladi.**

Bular:

1. Iqtisodiy qiymat;
2. Ekologik qiymat;
3. Estetik kadr — qiymat.

Yaqin — yaqinlargacha ekokomponentlar biosferada cheksiz, bitmas— tuganmasdek, ularning ko'lami hadsizdek bo'lib ko'rinar edi. Jamiyat taraqqiy etgan sari uning ehtiyoji ham ortadi, ekokomponentlarning o'z-o'zini koplash ko'lami bilan jamiyat ehtiyoji orasidagi mutanosiblikka putur yetdi. Ekologik komponentlar faqat miqdor o'zgarishiga emas, balki sifat o'zgarishiga ham duch keldi. Jamiyat bugungi kunda kelib toza suva havoning tanqisligi, tuproq tarkibining buzilishi, tabiat zahiralalarining kamayib ketishi muammolariga duch kelib qoldi.

Insoniyat tabiatidagi qiziq jihatlaridan biri shundaki, u o'ta qimmat narxda olgan narsasini aziz deb biladi. Shu kunlarda toza ichimlik suvining tanqisligi sezilmoqda, demak, u qadrli, qimmatbaho bo'lib bormoqda, chunki insoniyat ichimlik suv zahiralarning «Qizil chizig'iga» kelib qolgan. Ekokomponentlarning ko'zga ko'rinadigan qiymati—iqtisodiy qiymat bo'lsa, ko'zga tashlanmaydigan qiymati ekologik qiymatdir.

Jamiyat ishlab chiqarish faoliyati jarayonida ekokomponentlardan ba'zilarini ishlab chiqarish vositasiga aylantiradi. Iqtisodiy nuqtai — nazardan olganda, faqat mehnatga sarflangan narsagina qiymatga ega deb hisoblanadi. To'g'ri bu o'sha narsaning iqtisodiy qiymatini bildiradi. Masalan, "yerdan unum bilan foydalanishdan maqsad eng kam mehnat va mablag' sarf qilgan holda har bir gektar yer maydonida ko'proq miqdorda mahsulot olishdir. Shundan kelib chiqib, kam mehnat va mablag' sarflangan holda yer maydoni birligidan olinadigan yalpi mahsulot yerdan foydalanish samaradorligini asosiy ko'rsatkichi deb qabul qilingan. Xuddi shu asosda jumhuriyatimiz erlaridan foydalanilgan. Ekokomponentlarning iqtisodiy qiymati inson mehnati tufayli yuzaga kelsa, ekologik qiymatini tabiatning o'zi uzoq yillar mashaqqati — "mehnati" tufayli yuzaga keltiradi. Inson toza ichimlik suvi yoki toza havo yarata olarmikan?

Ekologik qiymat - ekokomponentlarning biomahsuldorligi, biomassasi, soni, maqbulligi, barqarorligi ekologik valentligi, ekologik samaradorligi, tolerantligi (chidamlilik me'yori), optimalligi, limitrik me'yori, ekologik muvozanatdagi roli, o'z- o'zini yangilash, qoplash funktsiyalari va boshqa bir qancha ekologik-energetik ko'rsatkichlari bilan xarakterlanadi.

Ekologik qiymat o'ziga "tabiiy sifat, ya'ni tabiiy hayot ko'rsatkichlariga teng sifatni" singdirgan bo'ladi. Ekologik qiymatli ekokomponentgina jamiyat uchun nihoyatda nodir moddiy boylik sanaladiki, uning o'rnini hech narsa qoplay olmaydi. Ekologik qiymati yuqori bo'lgan ekokomponentlarning iqtisodiy qiymati yuqori bo'ladi. Toza suvning ham, ifloslangan suvning ham ekologik qiymati mavjud, ammo ular aslo teng emas. Ifloslangan suvning ekologik qiymati past bo'ladi, ammo uning asl, tabiiy sifatida keltirish uchun ko'proq iqtisodiy mehnat, pul va vaqt

sarflanadi. Ammo ekologik qiymati yuqori bo'lgan suv bulardan, bunday harajatlardan xoli bo'ladi. Demak, jamiyat uchun suvni asl holicha, ekologik qiymati hosil bo'lgan paytida asrash ko'proq iqtisodiy foydali sanaladi.

Kanadada har bir gektar ekiladigan erdan o'rtacha 3 ming, Anliyada 5,5 Frantsiyada 6,5 AQSHda 7 ming, Yaponiyada 19,5 ming dollarlik foyda olinar ekan. Bu misollardan yaqqol ko'rinib turibdiki, yerning sifati, tabiiy, asl holati saqlansagina, yuqori bo'lar ekan. Boshqacha so'zlar bilan izohlasak, ekologik qiymati yuqori darajada saqlangan ekokomponent jamiyatga katta va ko'p iqtisodiy foyda keltiradi. Respublikamizda haydaladigan yerlarning 60%ga yaqini sho'rlangan bo'lib, bu yerlar o'zining ekologik qiymatini muayyan darajada yo'qotgandir. Bu yo'qotishning asosiy sababchisi jamiyat bo'lib, demak shu jamiyatning o'zi ekokomponentni oldingi sifatini qayta tiklashi zarurdir. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "yerni ko'paytirib bo'lmaydi", ammo uning asl tabiiy sifatini yo'qotmasligimiz shart. Sho'rlangan yerdan olingan hosil unumdor yerdan olingan hosilga qaraganda, uchidan ikki hissa kam bo'ladi.

Yerning unumdorligi eroziya tufayli atigi 2,5 santimetrda buzilsa, uni tiklash uchun dehqonchilik to'g'ri yuritilganda 300 yil vaqt kerak, yerdagi eroziya tabiat tomonidan sodir bo'lsa, u tez "tiklanadi". 10 santimetrli hosildor yer (gumus qobiq) paydo bo'lishi uchun tabiat ekokomponentlari 2000 yildan 7000 yilgacha "mehnat qilib" vaqt sarflaydi. Demak, absolyut ko'rsatkichlarda ifodalanmaydigan, o'lchab bo'lmaydigan, ammo bebaho hisoblangan ekologik qiymat ming—minglab yillar tabiat samarasi sifatida yuzaga keladi. Insoniyat nozik tugunini ya'ni ekokomponentning hosil bo'lish muddati bilan o'z ehtiyoji o'rtasidagi uyg'unlikning mezonini, ko'rsatkichini bilib o'shani amaliyotda qo'llay olsagina, ekokomponentlarning strukturasi (tuzilish) ko'rsatkichlariga zarar yetkazmagan bo'ladi yoki yaponiyaliklar o'z tabiatining ekologik qiymatini avaylab saqlanganidek saqlay oladi.

Respublikamizda ayniqsa, iqtisodiy jihatdan tub o'zgarishlar boshlangan bir paytda tabiat bo'lagini asl holicha avaylab — asrash kelgusi O'zbekiston iqtisodiy ravnaqining negizidir.

Shuni ta'kidlash lozimki, ekologik qiymat iqtisodiy qiymatga to'g'ri proporsionaldir, ekologik qiymat mohiyat bo'lsa, iqtisodiy qiymat hodisadir. Ekologik qiymat pasayishi bilan iqtisodiy qiymat ham kamayadi.

## **2.Ekologik dunyoqarashni shakllantirish shakl, metod va vositalari**

Ekologik tarbiya deganda asosan yoshlarda ekologik madaniyatni shakllanishi ko'zda tutilmog'i lozim. Chunki, ekologik madaniyat tushunchasi ham keng qamrovli bo'lib, inson faoliyatining aksariyat qismini o'zida mujassamlashtiradi. Ekologik madaniyatda ham insonparvarlik, axloqiy - ma'naviy xislatlar o'z aksini topadi. Insonparvarlik esa ma'lum ma'noda insonlarning ichki-his-tuyg'usining ma'lum bir qismini tashkil etuvchi asosiy dunyoqarashdir. Bu dunyoqarashning tarkibiy qismida ekologik madaniyat yotadi. Ekologik madaniyatda insonning ekologik etikasi, estetikasidagi, badiiy va diniy xislatlari ham shakllanadi. Tabiatga madaniy — etik jarayondan qarash har bir shaxsning, umuman, insonning burchidir. Tevarak-atrofdagi hayotni har bir qirrasining o'zi qaytarilmas bahoga ega bo'lgan jarayondir. Shu sababli aytish mumkinki insonlar o'rtasidagi ijobiy munosabatning o'zi ham tabiatga bo'lgan insonparvarlikdan dalolatdir. Ekologik madaniyatning tarkibiy qismi ekologik e'tiqoddur. Bu e'tiqod tabiatga hurmat va izzat bilan qarash natijasida paydo bo'ladi. Inson tabiat oldida etik qonun qoidalarga rioya qilishi davr talabidir. Ekologik madaniyat ham kundalik zaruriyatga aylanishi davlat rivojlanishi oldida muvaffaqiyat garovidir. Ta'kidlash lozimki, tabiat unsurlari ustida tekshiruv olib borayotgan tadqiqotchi o'z faoliyatida loqayd bo'lmasligi, shu tadqiqoti uchun javobgarligi, hatgo payti kelib javob berishi tabiiy bo'lishi lozim. Yaxshi maqsadlar ta'sirida amalga oshirilayotgan ishlari asosida kelajakda misli ko'rilmagan zarar keltirishi mumkinligini ham o'ylashi darkor. Bu mulohaza ekologik madaniyat markazida turishi lozim.

Tabiat boyliklaridan foydalanishda zaruriyat uchun insonga suiste'mol qilish xuquqi berilmagan. Suiste'mol bo'lgan joyda tabiat va jamiyat barqarorligi, muvozanati buziladi. Haqiqiy inson o'z faoliyatida beqarorlik bilan kurashadi. Uni betaraf qilib o'zining bemalol yashashi uchun sharoit yaratadi. Ana shunday sharoitda tabiat rivojlanish va inqirozi jarayonlarini tushunib etsa, kelajak uchun zamin yaratgan bo'ladi. Hayotning mazmuni barhayotlik bilan bog'lanishi lozim. Ammo, shuni alohida ta'kidlash lozimki, ko'pgina siyosatchilar, matbuot xodimlari, rahbarlar o'z nutqlarida umumiy faoliyatlarida tabiatga

etkazilayotgan zarar haqida turli mitinglarda, radio eshitgarish va teleko'rsatuvlarida jonkuyar sifatida ma'ruzalar o'qiydilar, amaliy faoliyatlarida esa boshqacha yo'l tutadilar. Aslida tabiatning buzilishini tushunib yetgan barcha kishilar o'zlarining amaliy faoliyatlarida, o'zlarining qalbidan chiqqan nidolarga amal qilganlarida edi, insoniyat hozirgi paytdagi tushkunlikka tushmagan bo'lar edi. Haqiqatda esa borliqni saqlashda insonlarning axloqiy, ma'naviy, madaniy saviyasining yuksakligi yetakchi o'rinni egallaydi.

Tabiatni ezozlash uchun jamiyatda yashovchi aholining barchasida madaniy, axloqiy saviyasi yuksak bo'lishi talab etiladi. Madaniyat, axloqiy saviya esa jamiyatdan alohida xolda yashamaydi. Jamiyatdan uzilib qolgan axloqiy va madaniy saviyaning bo'lishi mumkin emas. Jamiyatdan ajralgan bu jarayon kuchga ega bo'lmagan foydasiz faoliyatdir. Bu faoliyat olamdagi narsa va hodisalar haqida bahs yurguzib, haqiqatga erishaolmaydigan falsafiy mushohada xolos. Tevarak-atrofdagi o'simlik va hayvonot olamini mavjudligida ko'pligini saqlash, yo'q bo'layotgan fauna turlarini tiklash, madaniy va tarixiy qadriyatlarga rioya qilish, negativ holdagi antropogen ta'sirlarni oldini olish, axloqli-ma'naviyati baland shaxslarning vazifasidir. Barcha sohalarda shiddatli o'zgarishlar borayotganining guvohimiz. Ayniqsa, insonlar faoliyatidagi turmush tarzi ko'p jihatlarni yangicha tafakkur qilishga majbur etmoqda. Ana shunday sohalarning biri bu ekologiya sohasidagi ta'lim va tarbiyadir.

Ekologik ta'lim uncha qadimiy bo'lmasa-da, hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Ushbu sohadagi ta'limning mazmun va shakli davr taqozosidan kelib chiqishi ham tabiiy.

Ekologiyaning tub mazmuni haqida so'z yuritganda tabiat va jamiyat tarixini, undagi insonlar faoliyatini tahlil qilinmasa, ularni hozirgi zamon bilan bog'lanmasa o'z-o'zidan ma'lumki, ta'limning ta'sirchanligi talab darajasida bo'lmaydi. Ekologik ta'lim insonlarni o'rab turgan tirik tabiatning tuzilishi, er atrofidagi muhit haqidagina bo'lmasdan, balki tirik tabiatning hozirgi va kelajagi haqidagi ilmiy tasavvurlarni ham qamrab olishi zarur.

Ekologik ta'lim va tarbiyada insonlarning tabiatda tutgan beqiyos o'rni, tabiat jarayonlari bilan munosabati, u bilan bog'langanligi, aloqadorligini tushuntirish markaziy o'rinni olmog'i lozim.

Tabiatni muhofaza qilish, foydali qazilmalardan oqilona foydalanish, avvalo tabiat oldidagi javobgarlikni his etishni har bir insonga sidqidildan singdirish kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir. Har bir inson o'z mushohadasiga hayvonot va o'simliklar haqidagi chuqur bilimni singdirishi zaruratga aylanmog'i, o'simlik va hayvonot olamisiz inson alohida yashay olmasligi, bular ham insonning o'zini tashkil qilishdagi omil ekanligini yodidan chiqarmasligi lozim. Ta'lim va tarbiya sohasi o'quvchilarni ekologik jarayonlarni bilishini maqsadli tomonlarga diqqatini jalb etishni talab etadi. Barcha talabalarga, ularning yoshi jinsidan qat'iy nazar, tabiatni, atrof - muhitni, turli qurilish ob'ektlarini, zavod, fabrikalarning mohiyati, ularning zarurligini tushuntirish bilan birga ulardan kelib chiqadigan oqibatlarni tushuntirish nazariy va amaliy malakalarni hosil qilishda yaxshi samara beradi.

Ekologik ta'lim va tarbiyada ko'proq bosqichma-bosqich yondoshilsada, ularning barchasida ta'lim va tarbiya beruvchi tomonidan quyidagilarga o'quvchi diqqatini jalb qilish, ayniqsa muhimdir. Jumladan, tabiatni muhofaza qilish, xududlarni obodonlashtirish, ko'chat-daraxtlar o'tkazish va ularni parvarishlash, foydali qushlar, hayvonlarga zarar etkazmaslik, ko'l va ariqlarni ifloslantirmaslik aksincha, ularni doimiy tozalab turish, oromgohlarda bo'lganlarida ulardan oqilona foydalanish kabi sohalarni mavzudan uzoqlashtirmaslik lozim.

Mazkur sohada ish olib boruvchi har qanday ziyoli oddiylikdan murakkablikka qarab ish olib borishi talab etiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyaning asosi oiladan boshlanar ekan, shu oila agar ekologik zarar nafaqat oilaga, balki kerak bo'lsa uni mahalla, maktab, tuman, shahar, viloyat, mamlakatimiz va butun mintaqa, dunyo miqyosida ham ta'sir ko'rsatishini misollar bilan batafsil tushuntirib bera olsa, yaxshi natija berishiga shubha yo'q.

Ma'lumki, mamlakatimizda ekologik ta'lim va tarbiyaga katta e'tibor qaratilmokda. Ekologik ta'lim va tarbiya «Bog'cha bolalari tarbiyasi dasturi»iga ham kiritilgan.

Demak, ekologik ta'lim-tarbiya bog'chalardan so'ng umumta'lim maktablarida, kasb-hunar ta'lim muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida, barcha korxonalar va tashkilotlarda davom ettiriladi. Ammo, bosqichma-bosqich olib borilayotgan ekologik ta'lim va tarbiya hamma vaqt hamma yerda ham talab darajasidir, deb bo'lmaydi. Shu sababli ekologik ta'lim-tarbiyaning mazmun jihatdan o'zgarishiga e'tibor berilishi bilan barcha ta'lim-tarbiya shakllarini ham o'zgartirish lozim. Mazkur masala bilan shug'ullanuvchilar faoliyati bilan kifoyalanib qolmasdan, balki keng jamoatchilikni bu dolzarb sohaga jalb qilish lozim.

Turli jamoat tashkilotlari, birlashmalar, jamg'armalar ham chetda qolmasligi talab etiladi. Ushbu sohaning dolzarbligini tushuntirish ko'proq televidenie, radio, matbuot sohalarning kechiktirib bo'lmas vazifalaridir. Nazorat ishlarini tinmay olib borish, natijalarini o'z vaqtida bayon qilish samarali bo'lishini unutmaslik kerak.

Maktablarda, kasb-hunar kollejlari o'qitishning birinchi yili davomida nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish tavsiya etiladi. O'rganilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida savollarga javob berish tarzida suhbatlar o'tkazish, davriy matbuot materiallari asosida ma'ruzalar o'qish va atrof-muhit muhofazasi masalalariga bag'ishlangan tadbirlar haqida ma'lumotlar berish kerak. O'qitishning ikkinchi yilida esa mashg'ulotlarni bevosita tabiat qo'ynida o'tkazgan ma'qul. Bunda, asosan, tabiat muhofazasi bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazish maqsadida aniq vaziyatlar tahlil etiladi. Buning uchun esa, tozalash inshootlariga, zavod va fabrikalarga, shaxta va elektr stantsiyalarga, ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlar uyushtirib, o'quvchilar va talabalarga tabiatni eng ko'p ifloslantirayotgan ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rsatish, qolaversa, tabiatni muhofaza qilish tartibini maqbul darajada saqlayotganlarning amaliy faoliyatlari bilan tanishtirish lozim.

Munozara-mashg'ulotlarini quyidagi mavzular bo'yicha o'tkazish tavsiya etiladi: «Inson va tabiat», «Inson va suv», «Inson va hayvonat olami», «Inson va o'simliklar dunyosi», «Inson va atmosfera», «Inson va yer», Yerning hozirgi va kelgusidagi holati» va boshqalar. Mavzular sayyoramiz tabiatini muhofaza qilish va uning o'zgarishi misolida talqin etiladi. Tabiat bag'rida mashg'ulotlar o'tkazish, sanoat korxonalariga borish ham atrof - muhitga keltirilayotgan zararni kamaytirish



bo'yicha texnologik masalalarni hal etish yo'llarini axtarishga o'quvchi va talabalarni yo'llash juda zarurdir.

Tarbiyaviy faoliyat jarayonida O'zbekiston Respublikasining «Tabiat muhofazasi va tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish to'g'risida»gi qonunga va Vazirlar Mahkamasining qonun talablarining bajarilishi to'g'risidagi qarorlariga tayanish lozim. Zero, ularda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ekologiya sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, tabiat muhofazasi haqidagi qonun va bilimlarni ilmiy - texnikaviy yo'llar bilan targ'ib va tashviq etishni yaxshilash borasida zaruriy chora-tadbirlar belgilangan.

Ezgulik ham, yovuzlik ham, haloskorlik ham halokatga olib keluvchi kuch ham, insonning o'zidadir. Yoshlar xuddi ana shu kuch-qudratning chinakam egasi bo'lar ekanlar, o'z kelajagini o'zlari yaratishini sira yoddan chiqarmasliklari zarur. Shu o'rinda atoqli yozuvchi Chingiz Aytmatovning «Manasning qanotli tulporida» maqolasidan quyidagi satrlarni keltirib o'tishni lozim topdik: «Agar inson bolalik chog'laridanoq, o'z tarbiyasining ilk bosqichlaridan boshlab, tabiat bilan oshno tutinsa, men ishonch va umid bilan ayta olamanki, u yoshi ulg'ayib, faol mehnat quchog'iga kirgan paytlarida ham befarq vakilga aylana olmaydi. Unga tabiat muhofazasi haqida, tabiatga oqilona munosabatda bo'lishi borasida targ'ibot-tashviqotning sira keragi bo'lmaydi, uning o'zi bu ishga ma'naviy jihatdan tayyor bo'ladi. Tabiatni asrab- avaylash va sevishtga o'rgatish, mening nazarimda, yosh avlodini tarbiyalash masalasining eng insonparvar jihatlaridan biridir».

Inson o'zida tabiatga nisbatan hamisha ma'naviy ehtiyoj sezadi. Biroq biz keyingi vaqtlarda tabiatni o'z istaklarimizga bo'ysundirmoqchi bo'ldik. O'rmonlarni kesdik, tabiat go'zalligini buzib, to'g'onlar, korxonalar kurdik, cho'llarni o'zlashtirdik. Tabiatga nisbatan g'alabamizni tengsiz yutuq deb bildik. Endilikda esa hech qachon g'alaba qilib bo'lmaydigan, mutlaqo erkin tabiatga muhtoj ekanligimizni his etmoqdamiz.

Hozirgi vaqtda inson fan-texnika inqilobi davrida yashamoqda. Inson hayotining tabiatga, tabiiy muhitga bog'liqligi insoniyat tarixining barcha bosqichlarida barqaror hodisa bo'lgan. Ammo, bu bog'liqlik doimo o'zgarib borgan,

bugungi kunda esa ziddiyatli vaziyatga kirdi. Tabiatda bir vaqtlar unga go'zallik bag'ishlagan hayvon turlari yo'qolib bormoqda. Sanoat chiqindilari, radioaktiv cho'kindilar, to'plangan uglevodorodlar suv va havoni ifloslantirmoqda. Insoniyat oldida ochlik, o'z-o'zini zaharlash, irsiyatning biologik asoslarini buzish xavfi tobora ortayotir. Bugungi kunda chuchuk suvning etishmasligi, korxonalar xamda boshqa manbalar tufayli havoning ifloslanishi, tuproqning ishdan chiqishi, afsuski, tabiiy hodisaga aylandi. Demak, tabiatni egallash ma'lum darajada insoniyatning o'z hayotiy, faoliyatining tabiiy asoslarini izdan chiqarishga olib keldi.

«Qomusiy olim V.I.Vernadskiy shunday deb yozadi: “Bioqatlamning geologik tarixida insoniyat uchun katta kelajak ochiladi, faqat u buni tushunmog'i va o'z aqli hamda mehnatining o'zini qurbon qilishga sarflamasligi lozim.” Shu sababli bizning endilikdagi vazifamiz kelajakni ko'ra bilish va shu kelajak uchun kurash olib borishdir. Biz shu paytgacha «Qanday qilmoq kerak?» degan shior bilan ish ko'rdik. Endi «Nima qilmoq kerak?» degan savolga ham javob bermog'imiz zarur. Nima qilmoq kerak shiori ostida biz maqsadlarimizga qay tarzda etishimiz haqidagina emas, balki maqsadlarimiz nimadan iborat ekani haqida ham o'ylaymiz maqsadimiz, qanday bo'lishi lozimligini ham nazarda tutamiz. Ekologik tarbiya va ta'limning asosiy mazmun va shakli yuqoridagi fikrlarni tahlil qilishi va uni har bir insonga singdirishi davr talabidir.

Hozirda “Tabiat-jamiyat-inson” munosabatlarini boshqarishda axloqiy normalardan foydalanish imkoniyatlarini: mahalliy, milliy, hududiy va global darajalarda o'rganish, ularning umuminsoniy universal mezonlari shakllanishi qonuniyatlarini aniqlash muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega. Zero, bu tizim munosabatlarini baholashning ekologik axloqiy normalari milliy va umuminsoniy tarixiy tajribalarni, hayotiy an'analarini, huquqiy mezonlarini uyg'unlashtirib, qadriyat maqomida namoyon qiladi. Ayniqsa, ekologik muammolarning globallashib ketishi bilan milliy ekologik axloqiy qadriyatlarga umuminsoniyat manfaatlari nuqtai nazaridan yondoshilib, ahamiyati baholanadi. Bunda milliy ekologik axloqiy me'yorlarining universallasuvi, bir tomondan, “tabiat-jamiyat-inson” tizimi munosabatlarini boshqarish tartibini va ularning funktsional uyg'unlashuvini

ta'minlaydi. Ikkinchi tomondan esa, bu tizimni boshqarishning milliy ma'naviy-axloqiy usullari va vositalari rivojlanishi global ekologik barqaror taraqqiyotini va uning istiqbollarini belgilaydi. Turli jamiyatlarga, millatlarga xos ekologik axloqiy qarashlarni, muqobil ta'limotlarni o'rganish va ularga differentsial yondoshgan holda amaliyotga joriy qilish mustahkam ilmiy asoslarni taqozo qiladi. Ekologik muammolarning globallashuvi jarayonida "tabiat-jamiyat-inson" tizimi munosabatlarini boshqarishning milliy va umuminsoniy ma'naviy-axloqiy usullari, vositalarining integrativ xususiyatlari baholashning universal mezonlari shakllanishiga olib keladi. Ya'ni, milliy va umuminsoniy ekologik axloqiy normalar integratsiyasi natijasida "tabiat-jamiyat-inson" tizimi munosabatlarini baholash mezonlari universallashtirilmogda. Albatta, jamiyatning barqaror ekologik taraqqiyoti darajalarini baholashda milliy va umuminsoniy axloqiy normalar integratsiyasi ekologik vaziyatning global miqyosda keskinlashuviga munosabatning taqozosi bo'lib, umuminsoniyat ekologik manfaatlari uyg'unligini ifodalaydi. Chunki, ***birinchidan***, "tabiat-jamiyat-inson" tizimi munosabatlarning doimiy ravishda rivojlanib, murakkablashib borishi bilan milliy ekologik axloqiy norma va tamoyillarga umuminsoniyatning talabi ham oshib boradi. ***Ikkinchidan***, "tabiat-jamiyat-inson" tizimida "inson va tabiat", "inson va inson", "jamiyat va tabiat" munosabatlarini boshqarishda universal axloqiy normalarning tarkib topishi, ushbu tizim taraqqiyoti darajasini belgilovchi omil hisoblanadi. ***Uchinchidan***, muayyan ekologik makonning taqozosi bilan shakllangan har qanday milliy ekologik axloqiy normalar umuminsoniy qadriyatlarning konkret tarzda namoyon bo'lishidir. ***To'rtinchidan***, "tabiat-jamiyat-inson" tizimi global taraqqiyotini belgilovchi universal ekologik axloqiy mezonlar milliy qadriyatlarni istisno qilmaydi, aksincha uning rivojlanishini rag'batlantiradi. ***Beshinchidan***, "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarini baholashning ekologik axloqiy mezonlari universallashtiruv va globallashtiruvini tarixiy taraqqiyotning ob'ektiv qonuniyati tarzida e'tirof etish kerak. Shu nuqtai nazardan "tabiat-jamiyat-inson" tizimi munosabatlarini baholashning ma'naviy-axloqiy mezonlaridagi o'zgarishlar ekologik vaziyat o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, uning xarakterini belgilaydigan yangi umuminsoniy

universal axloqiy mezonlarini aniqlashni taqozo qilmoqda. Chunki, ekologik muammolar globallashuvi va keskinlashuvi bilan “tabiat-jamiyat-inson” munosabatlari rivojlanish darajasini va xarakterini baholashning konkret milliy axloqiy mezonlar ham universallashtirib, umuminsoniy mazmun kasb yetib boraveradi. Boshqacha qilib aytganda, ekologik ma’naviy-axloqiy mezonlar globallashuvi va umuminsoniy xarakter kasb etishi, ularning milliy xususiyatlarini istisno qilmaydi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, umuman jamiyatning har qanday yo’nalishda rivojlanish darajalarini belgilaydigan mezonlari, xususan axloqiy mezonlar ham (milliy yoki umuminsoniyligidan qat’iy nazar) ekologik makon xususiyatlariga mos ravishda o’zgarib turadi. “Tabiat-jamiyat-inson” munosabatlarini baholashning universal ma’naviy-axloqiy mezonlari, eng avvalo, uning sub’ektlari o’rtasidagi mutanossiblikni ta’minlashga qaratilgandir. Zero, sub’ektlar (jamiyat va inson)ning ma’naviy-axloqiy rivojlanish darajasi, ularning tabiatga munosabati natijalarini belgilab beradi. Ya’ni, jamiyat va insonning tabiatga nisbatan ma’naviy-axloqiy munosabatini baholashda universal tamoyillar shakllanishi bilan shaxsda ekologik mas’uliyat, burch, majburiyat xususiyatlari namoyon bo’ladi. Eng muhimi, “tabiat-jamiyat” munosabatlarini ma’naviy-axloqiy baholash mezonlarini belgilashda, insonning tabiiy resurslarga ehtiyoji bilan tabiatning o’zini o’zi tiklash imkoniyatlari o’rtasidagi muvozanatni ta’minlash asosiy talab bo’lishi kerak. Chunki, har qanday insonning o’z ijtimoiy faoliyati va uning ekologik oqibatlari uchun shaxsiy mas’uliyati, javobgarligi “tabiat-jamiyat” munosabatlari (tsivilizatsiyalashgan, madaniy yoki yovvoyi, g’ayri ilmiy) xarakterini, rivojlanish darajasini belgilaydigan umuminsoniy ma’naviy-axloqiy mezonlarga aylanmoqda. “Tabiat-jamiyat” munosabatlarini boshqarishda ma’naviy-axloqiy mezonlarga amal qilish ob’ektiv qonuniyatlarga, huquqiy tartiblarga asoslanmog’i lozim. Zero, globallashtirayotgan va universallashtirayotgan ekologik milliy axloqiy normalar umuminsoniyatning tabiatni muhofaza qilish maqsadlari, manfaatlari umumiylikini ifodalaydi. Insoniyatning ekologik barqaror taraqqiyot istiqboli va taqdirini anglashi milliy axloqiy qadriyatlarining globallashtiruviga olib kelmoqda. Chunki, “tabiat-jamiyat-inson” munosabatlarini boshqarishda milliy axloqiy mezonlarning globallashuvi va

universallashuvi umumiylikning muayyan ekologik makon va vaziyatda konkretlashgan shakli sifatida e'tirof etilishi zarur. Lekin, ekologik muammolarning globallashuvi sharoitida milliy ekologik axloqiy normalarning mazmuni ham, shakli ham o'zgarib, integrativ, universallashgan qadriyat sifatida hayotga joriy etilishi sust kechmoqda. Ya'ni, xatto xalqaro miqyosda e'tirof etilgan umuminsoniy ekologik axloqiy normalarning milliy manfaatlarga mosligini anglash jarayoni qiyin kechayapti. Chunki, insonlarda ekologik ma'naviy axloqiy normalar globallashuvining ijobiy oqibatlariga skeptik munosabati, eski stereotiplardan voz kechish o'rniga ularni mutlaqlashtirish holatlari, etnotsentrik egoizm kayfiyati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, o'tish davrida eski tizim stereotiplari butunlay bartaraf qilinmagan, yangi jamiyat tamoyillari to'liq shakllanmagan paytida ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra milliy axloqiy normalarning "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarini boshqarish funksiyasida noshudliklar bo'lishi tabiiy. Bunday vaziyatda umuminsoniy axloqiy qadriyatlarning kompensatorlik funksiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikka erishgan davlatlarda mustabid tizim stereotiplaridan voz kechib, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining ma'naviy-axloqiy asoslarini shakllantirish jarayonidagi murakkabliklar ekologik axloqqa ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bunday vaziyatda ekologik ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning mezon maqomini mustaxkamlash: ***birinchidan***, "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarini boshqarishni oqilona tashkil qilish uchun, ularning strukturasi elementlarini bozor munosabatlariga moslashtiradigan mexanizmlarni yaratish va imkoniyatlarni qidirib topishni; ***ikkinchidan***, tabiat muhofazasi sub'ektlari va fuqarolarning ekologik faolligini, mas'uliyatini oshirishning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-madaniy omillar uyg'unligini ta'minlashga e'tiborni kuchaytirishni; ***uchinchidan***, ekologik vaziyatning mahalliy, milliy, hududiy va global holati haqida ob'ektiv axborotlarga ega bo'lish, ularni umumlashtirish, taxlil qilish hamda xalqaro ayriboshlashini tashkil qilishni; ***to'rtinchidan***, jahonning rivojlangan mamlakatlari ekologik faoliyat tajribalarini o'rganish, ularni ijodiy rivojlantirish uchun ularning xalqaro institutsional tizimi va qonuniy huquqiy asoslarini takomillashtirishni; ***beshinchidan***, hozirgi davrda ekologik muammolar

globallashuvi shu sohadagi ma'naviy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyani davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylantirishni; *oltinchidan*, “tabiat-jamiyat-inson” munosabatlari axloqiy normalarga ko'ra boshqarish ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillar uyg'unligini, uning kompleks-sistemaliligi hamda universalligini taqozo qilmoqda. (- jadval) Insoniyatning tarixiy rivojlanish tajribalari bir ijtimoiy - siyosiy tuzumdan boshqasiga o'tish davrida “tabiat-jamiyat-inson” munosabatlari ham an'anaviylik va vorisiylik o'rtasida uzilishlari ro'y berishini ko'rsatib bergan. Xususan, iqtisodiy va siyosiy hayotning beqarorlashuvi bevosita ekologik munosabatlarda ham kuzatiladi. Lekin, ekologik munosabatlar globallashuvi bu jarayonni boshqarishni ma'naviy-axloqiy jihatdan takomillashtirishni talab qiladi. Ekologik axloq normalarining “tabiat-jamiyat-inson” munosabatlari oqilona boshqarishdagi rolini tushunib olish uchun muhim falsafiy ahloqiy tushuncha bo'lgan qadriyatlar bilan munosabatini qisman ko'rib o'tish maqsadga muvofiq. Qadriyatlar — jamiyat va shaxs madaniy rivojlanishini tartibga soluvchi muhim omillardir. Shuning uchun ham bu masala ekologlar, sotsiologlar, antropologlar va psixologlar tomonidan diqqat bilan o'rganib kelinadi.

Inson tug'ilgandan to umrining so'nggi soatigacha aql odob o'rganar ekan, bilim izlar ekan, uning ekologik ongi va dunyoqarashi ham shunga yarasha oshib boradi. Sog' tunda sog' aql, deganlaridek aqli raso inson atrof-muhitga befarq bo'la olmaydi, chunki u mazkur tabiat qo'ynida tug'iladi, ulg'ayadi, uning ehsonlaridan bahramand bo'ladi, musaffo havosidan nafas olib, ziloldek suvlaridan huzur qiladi, orombaxsh go'shalarda xordiq chiqaradi. Tabiat shunchalik go'zal, zebo, ko'rkam uning betakror husunkor chamanzorlari ko'p, buning barchasi inson uchun yaratilgan. Gap shundaki, ko'hlik va maftunkor dunyo lazzatidan bahramand bo'lish naqadar foydali ekaligini tushunib etish zarur. Afsuski, shunday tabiatning nodir go'shalari insonning mehnat faoliyati, ba'zan bevosita ta'sirida keyingi 40—50 yil mobaynida turli darajadagi o'zgarishlarga muhtalo bo'lmoqda. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, hali ham insonni ekologik ongi va madaniyati, dunyoqarashi yuqori emas. Kishilarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish bir qaicha bosqichlarda amalga oshiriladi. Har bir bosqichda ekologik ongining ma'lum shakllari va ularning

mazmunlari tarkib topadi. Eng muhimi yoshi kattalashgan sari ekologik madaniyat va dunyoqarash ham yuksalib boradi. Ammo bu o'sish o'zidan-o'zi yuz bermaydi.

Ekologik ong, dunyoqarash muntazam bilim olish va ilm bilan shug'ullanish natijasida shakllanib boradi. Shu jihatdan qaraganda ekologik ongning rivojlanish bosqichlariga qarab insonda u yoki bu darajada dunyoqarash shakllanadi. Agarda ushbu umumiy o'sish jarayonidagi ma'lum bosqichlarda tegishli ekologik ong yetarli darajada shakllanmasa, u holda yuqori samaraga erishilmasligi ayon.

Uzluksiz ekologik madaniyat xuddi ekologik ong kabi quyidagi tartibda shakllanib boradi oila-bog'cha-maktab (gimnaziya, litsey)—oliy o'quv yurti (yoki o'rta maxsus o'quv yurti, kollej)— ishlab chiqarish korxonasi — mahalla. Albatta, bu tizim shartli, birin-ketin bo'lishi shart emas. Ekologik madaniyatning shakllanishiga oila katta miqyosda ta'sir etadi, shuningdek, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari (radio, televidenie, matbuot va hokazo), kuchli mutaxassislar, din arboblarning gaplari ham o'z ta'sirini ba'zan jiddiy tarzda ko'rsatadi. Sirasini aytganda ekologik ong ekologik madaniyatni belgilaydi, binobarin, ekologik ongga ega bo'lish, kishini ekologik madaniyat sohibi bo'lishga etaklaydi.

Ekologik madaniyat Markaziy Osiyo hududi tub xalqlari ongida to'la mujassam bo'lgan, to'g'ri u vaqtlarda aholi soni ancha oz, urbanizatsiya darajasi past, tabiiy boyliklardan foydalanish darajasi ham nihoyatda kam bo'lgan. Lekin xalqlar yuksak ekologik madaniyatga ega bo'lgan. Odamlar orasida «savob», «uvol», «qarg'ish», «harom», «birovning (yoki etimning) haqi», «tarozi urma», «o'g'rilik qilma», «sutga suv qo'shma», «hayvonlarga ozor berma», «suvga supirindi tashlama», «nonning uvog'i ham non, uni erga tashlama» va shu kabi qator ibora va tushunchalar mavjud ediki, ayrim yoshlarimiz bular to'g'risida unchalik tasavvurga ega emaslar.

## **Xulosa.**

1. Yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat, tariximizga, muqaddas dinimizga sadoqat ruhida, bag'rikeng qilib tarbiyalash uchun, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ular da odamiylikni mustahkamlash lozim. Odamiylik - bag'rikenglikning muhim shartlaridan bo'lib, jamiyat a'zolariga nisbatan hurmat, ishonch, sof qalblik, samimiylik, kamtarlik, poklik fazilatlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, ulug' ajdodlarimizning o'tmishida jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan ma'naviyatini o'rganish, "ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat-andisha, sharmu-hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalari orqali bag'rikeng qilib tarbiyalash biz ziyolilarning asosiy burchimizdir.

2. Inson tug'ilgandan to umrining so'nggi soatigacha aql odob o'rganar ekan, bilim izlar ekan, uning ekologik ongi va dunyoqarashi ham shunga yarasha oshib boradi. Sog' tanda sog' aql, deganlaridek aqli raso inson atrof-muhitga befarq bo'la olmaydi, chunki u mazkur tabiat qo'ynida tug'iladi, ulg'ayadi, uning ehsonlaridan bahramand bo'ladi, musaffo havosidan nafas olib, ziloldek suvlaridan huzur qiladi, orombaxsh go'shalarda xordiq chiqaradi.

3. Kishilarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish bir qaicha bosqichlarda amalga oshiriladi. Har bir bosqichda ekologik ongining ma'lum shakllari va ularning mazmunlari tarkib topadi. Eng muhimi yoshi kattalashgan sari ekologik madaniyat va dunyoqarash ham yuksalib boradi. Ammo bu o'sish o'zidan-o'zi yuz bermaydi. Ekologik ong, dunyoqarash muntazam bilim olish va ilm bilan shug'ullanish natijasida shakllanib boradi. Shu jihatdan qaraganda ekologik ongning rivojlanish bosqichlariga qarab insonda u yoki bu darajada dunyoqarash shakllanadi. Agarda ushbu umumiy o'sish jarayonidagi ma'lum bosqichlarda tegishli ekologik ong etarli darajada shakllanmasa, u holda yuqori samaraga erishilmasligi ayon.

4. Ekologik tarbiya deganda asosan yoshlarda ekologik madaniyatni shakllanishi ko'zda tutilmog'i lozim. Chunki, ekologik madaniyat tushunchasi ham keng qamrovli bo'lib, inson faoliyatining aksariyat qismini o'zida mujassamlashtiradi.



5. Ekologik madaniyatning tarkibiy qismi ekologik e'tiqoddir. Bu e'tiqod tabiatga hurmat va izzat bilan qarash natijasida paydo bo'ladi. Inson tabiat oldida etik qonun qoidalarga rioya qilishi davr talabidir. Ekologik madaniyat ham kundalik zaruriyatga aylanishi davlat rivojlanishi oldida muvaffaqiyat garovidir.

6. Tabiatni ezozlash uchun jamiyatda yashovchi aholining barchasida madaniy, axloqiy saviyasi yuksak bo'lishi talab etiladi. Madaniyat, axloqiy saviya esa jamiyatdan alohida xolda yashamaydi. Jamiyatdan uzilib qolgan axloqiy va madaniy saviyaning bo'lishi mumkin emas. Jamiyatdan ajralgan bu jarayon kuchga ega bo'lmagan foydasiz faoliyatdir. Bu faoliyat olamdagi narsa va hodisalar haqida bahs yurguzib, haqiqatga erisha olmaydigan falsafiy mushohada xolos.

7. Tevarak-atrofdagi o'simlik va hayvonot olamini mavjudligida ko'pligini saqlash, yo'q bo'layotgan fauna turlarini tiklash, madaniy va tarixiy qadriyatlarga rioya qilish, negativ holdagi antropogen ta'sirlarni oldini olish, axloqli-ma'naviyati baland shaxslarning vazifasidir.

8. Aholining ekologik dunyoqarashini shakllantirish tabiat muhofazasini muntazam amalga oshirishda asosiy ijrochi omil hisoblanadi, uning har doim ham yuqori bo'lishiga, vaqti-vaqti bilan takomillashtirib turishga erishish zarur. Aholining barcha tabaqalari, bog'cha yoshidagi yosh bolalardan tortib mo'ysafid otaxon va onaxonlargacha atrof-muhitga nisbatan yakdil ijobiy fikrda bo'lishlari unga zahmat keltirmaslik ruhida tarbiyalanishlari kerak. Har bir kishida «tabiat-bu men va sen, biz yashaydigan makon, tabiat butun er kurasi aholisi yashaydigan yagona makon» degan tushunchalar shakllanishi darkor. Biz aholi ekologik ongi, dunyoqarashining qanchalik yuqori darajada bo'lishligiga erisha olsak ona tabiat—biosferamiz shunchalik omon va sermahsul, latofatli va maftunkor bo'lib qola beradi.

Tavsiyalar:

1. Glaballashuv jarayonida ekologik dunyoqarashni shakllantirishda oilada ekologik tarbiya, ekologik odob, ekologik axloq tushunchalarini milliy qadriyatlarga asoslangan holda olib borishni taklif etaman.

2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik dunyoqarashni shakllantirishga oid turli rangli rasmlar, ertaklar, maqol va topishmoqlar, shuningdek ekologik

o'yinlar tashkil etib, ekologik muammolar oqibatlari haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish lozimligini aytaman.

3. Tabiatni muhofaza qilishga oid turli videoroliklar, multifilmlar yaratilib uni internet sahifalariga joylashtirishni tavsiya etaman.

4. Uzlaksiz ta'lim tizimida ekologiya fanlari tizimi kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

5. Zangori ekranda turli ekologik muammolarning oqibatlari va atrof muhitni ifloslantirmaslikka oid turli qiziqarli ko'rsatuvlar ko'proq tashkil qilinishini taklif etaman.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTAR RO`YXATI.

1. I.Karimov «Uzbekiston XXI asr busagasida. Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va tarakkiyot kafolatlari» Toshkent. Uzbekiston. 1997. -114 bet.
2. Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” T., “Ma’naviyat”. 2008 y., 111 b.
3. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T, 2003 y. 24 bet
4. “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida” O’zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabr Qonuni. O’zbekiston Respublikasining Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 yil, 1-son.
5. A.Ergashev. Umumiy ekologiya. T, O’zbekiston 2003 y. -12-14 b.
6. B.Ziyomuxamedov. Ekologiya va ma’naviyat. T, 1997 y. -25-46 b.
7. D.Rasilov. Urbanizatsiya va ekologik madaniyati shakllantirish masalalari.T.2000.60 b.
8. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish.- T., 2005. -136-145 b.
9. Ekologik ta’limdan barqaror rivojlanish ta’limi sari. qo’llanma. “Talqin” nashriyot, 2007. – 66-73 b.
10. Nigmatov A. O’zbekiston Respublikasining ekologiya huquqi. - T.: “Gofur G’ulom”, 2003. – 88-94 b.
11. Nigmatov A.N. Ekologiya nima?- T.: “Turon iqbol”, 2005.-11-15 bet.
12. S.Raximov, Z.Davronov, S Hasanov. Ekologiyaning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy asoslari. (O’quv qo’llanma) T, 2006 y.-45-56 b.
13. S.Mamashakirov. Ekologik ta’lim-tarbiyaning metodologik masalalari. T,1993 y-15 b.
14. X.T.Tursunov, T.U.Raximova. Ekologiya. (O’quv qo’llanma) T, 2006 y.-167 b.
- 15.To’xtaev A.S. , Xamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T. «O’qituvchi». 1994.-176 b.
16. To’xtaev A.S. Ekologiya. Toshkent., O’qituvchi, 2001.-144b.
- 17.Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T. «O’qituvchi».1994.-28 b.
18. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
19. [www.uznature.uz](http://www.uznature.uz)